
Bayram yarmarkalari – el xizmatida

✿ Yangi yil bayrami oldidan barcha joylarda bo'lgani kabi Rishton tumanida ham qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining an'anaviy savdo yarmarkalari tashkil etildi.

□ Xususan, "Rishton dehqon bozori"da faoliyati yo'lga qo'yilgan bayram yarmarkasida dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirilgan, tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari aholiga arzon narxlarda taklif etilmoqda. Savdo rastalarida yangi va sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari, salqin ichimliklar, go'sht, guruch, baliq, tuxum, shirinlik kabi mahsulotlar joy olgan. Bayram dasturxonining yanada to'kin bo'lishi, aholini sifatli oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadiga tashkil etilgan mazkur yarmarka hamisha aholi xizmatiga tayyor.

2022-12-26 09:56:13